

MASOFAVIY TA'LIMNI BOSHQARISH AXBOROT TIZIMLARINING INKLYUZIVLIK VA OCHIQLIQ JIHATLARI

Djabbarov Adib Xalmuradovich^{1,2}

¹Tashkent International University of Education

²Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

E-mail: adibkhan4344@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi masofaviy ta'limni boshqarish axborot tizimining muhim jihatlari bo'lgan inklyuzivlik va ochiqlik ko'rib chiqilgan. Muallif inklyuzivlik va ochiqlikni o'ziga xos xususiyatlari hamda muammoli tomonlarini ko'rib chiqib, ularga o'z yechimi taklif qilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, oliy ta'lim, boshqaruv tizimi, masofaviy ta'lim, inklyuzivlik, ochiqlik.

ASPECTS OF INCLUSIVENESS AND OPENNESS OF INFORMATION SYSTEMS FOR DISTANCE EDUCATION MANAGEMENT

Djabbarov Adib Khalmuradovich^{1,2}

¹Tashkent International University of Education

²Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

E-mail: adibkhan4344@gmail.com

Abstract. This thesis examines such important aspects of the distance learning management system as inclusivity and openness. The author points out the features of inclusivity and openness, their problematic factors and ways to solve them.

Keywords: education, higher education, management system, distance learning, inclusivity, openness.

Zamonaviy ta'lim ham jahon, ham milliy miqyosda inklyuziv muhit, ya'ni barcha tahsil oluvchilarning ehtiyojlariga moslashgan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "Barqaror rivojlanish maqsadlari"da ham alohida belgilangan. Bundan tashqari, 2020 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida aynan "nogironligi bo'lgan shaxslarning inklyuziv ta'lim (maktabgacha, maktabdan tashqari, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional, oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim) olish imkoniyatini ta'minlash" deb ta'kidlangan [1]. Shu nuqtai nazardan ta'limni axborot boshqaruvi tizimida inklyuzivlik va ochiqlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda oliy ta'limning masofaviy shakli mamlakatimiz uchun bir yangilik sifatida joriy etilgan bo'lsada, u aynan nogironligi bor yoki imkoniyati cheklangan shaxslar uchun turli imkoniyatlar va qulayliklarni yaratishi mumkin. Xususan:

- 1) ochiqlik;
- 2) dars jadvalining moslashuvchanligi;
- 3) individual yondashuv;
- 4) yordamchi texnologiyalardan foydalanish;
- 5) to'siqlar kamligi;
- 6) o'zaro muloqot uchun keng imkoniyatlar.

Har qanday ta'lim shakli kabi masofaviy ta'limni boshqarish ham turli axborot texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Bunda albatta inklyuzivlik va ochiqlik

tamoyillariga rioya qilish lozim. Shuni ham ta'kidlash joizki, inklyuzivlik tamoyili nafaqat nogironligi bor shaxslar bilan bog'liq, balki uning asosiy kontseptual g'oyasi barcha kishilarini ularning jismoniy, psixik, intellektual, jinsiy, madaniy va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar qamrab olishni nazarda tutadi [2, 160]. Ochiqlik tamoyili esa barchalarga ta'lim olish uchun teng sharoitlarni yaratish degani [3, 288]. Mazkur tamoyillarga masofaviy ta'limni axborot boshqaruv tizimi ham rioya qilishi zarur va bu quyidagi muhim jihatlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. O'quvchilarning xilma-xilligini inobatga olish, chunki masofaviy ta'limda nafaqat nogironligi bor yoki yo'q, balki turli ijtimoiy-madaniy xususiyatlarga ega shaxslar bo'lishi mumkin.

2. Tahsil oluvchilarni o'qitish va bilimlarini baholashda individual yondashuv.

3. Barcha tahsil oluvchilar uchun texnik yordam xizmati.

4. Turli xil o'quv materiallar va resurslarga ochiq dostup.

5. Ta'lim resurslari va vositalaridan erkin foydalanish va shu bilan birga tushunarli interfeys yaratish uchun foydalanuvchilar bilan samarali feedback tizimini joriy qilish.

Masofaviy ta'limni boshqarish axborot tizimi inklyuzivlik va ochiqlikni ta'minlashda turli muammolarga duch kelishi mumkin:

- texnik cheklovlar;

- iqtisodiy va geografik sharoitlar;

- resurslar va materiallar sifati nazoratining yetarli darajada tashkil etilmaganligi;

- texnologik to'siqlar;

- madaniy va til to'siqlari;

- ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi.

Ushbu masalalarni hal qilish barcha mutaxassislardan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Zamonaviy ta'limni boshqaruv axborot tizimining inklyuzivligi va ochiqligini ta'minlash – bu davr talabi. Mazkur tamoyillar barcha uchun teng va xilma-xil ta'lim muhitini yaratish uchun imkon beradi. Turli muammolar ham mavjud, lekin ushbu muammolar kompleks strategiyalar va yechimlarni ishlab chiqish orqali bartaraf etilishi mumkin. Natijada masofaviy ta'limni boshqarish axborot tizimlari yanada takomillashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni, 15.10.2020 yildagi O'RQ-641-son. Havola: <https://lex.uz/ru/docs/-5049511>.
2. Саидова К.У. Социально-философские перспективы развития современного образования // ММИТ Proceedings. 25.05.2023. – P.159-161.
3. Shaymatov J.N. Masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari // Academic research in educational sciences. – 2021. – Vol.2. – No.2. – P.284-291.